


## Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona viloyatida 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 9 650,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur`ati 103,1 % ni tashkil etdi.

### Farg`ona viloyatida yanvar-sentabr holatiga ko`rsatilgan xizmatlarining hajmi va o'sish sur`atlari.




2020- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1 244,3 mlrd. so'mga oshdi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>9 650,3</b>	<b>103,1</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	547,5	112,9
moliyaviy xizmatlar	1 765,3	132,3
transport xizmatlari	1 936,6	100,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 858,4	104,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	246,5	98,1
savdo xizmatlari	3 166,1	100,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	249,0	90,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	378,0	98,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	161,2	88,8
ijara xizmatlari	227,2	91,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	249,7	88,7
shaxsiy xizmatlar	437,7	90,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	78,4	74,1
boshqa xizmatlar	207,1	85,9


Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (132,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,9 %), savdo xizmatlari (100,0 %), hamda, transport xizmatlari (100,0 %), xizmatlari kabi xizmat turlarida qayd etildi.

### 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm.




Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarida 3 166,1 mlrd. so'm, transport xizmatlarida 1 936,6 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlarda 1 765,3 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 547,5 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, 2020- yil yanvar-sentabr (%)




2020- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 246,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 20,0 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 226,5 mlrd. so'mni tashkil etgan.

## 2020- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar tarkibi ( % ) da




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,8 %), transport xizmatlari (20,1 %), moliyaviy xizmatlar (18,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,7 %), shaxsiy xizmatlar (4,5 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,9 %) tashkil etadi.

## 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %



2020- yil yanvar-sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 1 936,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1 858,4 mlrd. soʻmni, jami transport xizmatlarining 96,0 % ni tashkil etadi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur`ati, %**



Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (132,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (112,9 %), savdo sohasidagi xizmatlar (100,0 %) ta'lim sohasidagi xizmatlar (98,3 %) hissasiga to'g'ri keladi.




**2020- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	9 650,3	103,1
Farg'ona sh.	4 512,6	104,7
Qo'qon sh.	1 188,8	100,2
Quvasoy sh.	157,0	101,4
Marg'ilon sh.	909,4	100,4
Oltiariq t.	278,1	101,5
Qo'shtepa t.	159,2	100,7
Bag'dod t.	186,6	100,8
Buvayda t.	250,1	100,2
Beshariq t.	201,8	106,8
Quva t.	224,3	104,8
Uchko'prik t.	263,9	105,8
Rishton t.	185,5	104,1
So'x t.	78,1	105,8
Toshloq t.	219,7	102,7
O'zbekiston t.	214,5	105,0
Farg'ona t.	233,4	100,6
Dang'ara t.	178,6	100,4
Furqat t.	83,0	104,1
Yozyovon t.	125,7	100,4

2020- yil yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur`atlari Farg`ona shaxrida (104,7 %), Quvasoy shaxrida (101,4 %) Marg'ilon shaxrida (100,4 %), va Beshariq (106,8 %) tumanida qayd etildi.

**2020- yil yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi  
(jami hajmga nisbatan %)**



2020- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (46,8 %), Qo'qon (12,3 %) va Marg'ilon (9,4 %) shaharlarida hamda Oltiariq (2,9 %), Uchko`prik (2,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlari sohasi statistikasi bo'limi

73-249-87-28